



FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 29-aprel

106-11-163-Q/25

Farg'ona tumani hokimligi

Farg'ona tumanida 2025-yil uchun qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Dafn etish va dafn ishi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Dafn etish va dafn ishi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" 2011-yil 4-apreldagi 101-son qarori bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyyati to'g'risida"gi Qonuning 6, 25-moddasiga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Farg'ona tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimi o'rribbosari (M.Qodirxonov), Obodonlashtirish boshqarmasi (T.Isaqov)larga:

fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

sanitariya qoidalari va me'yorlariga qat'iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylik ta'minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni "Yer to'g'risida"gi qonun hujjalariга muvofiq amalga oshirilsin.

3. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (T.Isaqov)ga:

xizmatlar uchun qat'iyan belgilangan tariflar bo'yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko'rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o'z vaqtida va sifatli bajarilishini;

qabristonlarda byustlar, haykal taroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo'lgan inshootlarni o'rnatish, obyektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariга rioya etilishini ta'minlasin.

4. Belgilansinki, mazkur qaror "Vodil yog'dusi" gazetasida rasmiy e'lon qilinsin hamda tuman hokimligining veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rribbosari M.Qodirxonov zimmasiga yuklatilsin.

**Farg‘ona tuman
hokimi**



**INOMOV
XAMIDULLO.TADJIYEVICH**

Farg‘ona tumani hokimining
2025-yil 29-apreldagi
106-11-163-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Farg‘ona tumanida 2025-yil uchun qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish
bo‘yicha tariflar miqdori**

T\rl	Xizmat turi	O‘lchov birligi	Bazaviy hisoblash mildoriga nisbatan hisoblanadi
1.	Qabr uchun (diniy mansubligidan qat’iy nazar katta o‘lchamda)	1 o‘ringa	50%
2.	Qabr uchun (diniy mansubligidan qat’iy nazar kichik o‘lchamda)	1 o‘ringa	40%
3.	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 o‘ringa	bepul
4.	Qabr uchun (diniy mansubligidan qat’iy nazar 3 yoshgacha)	1 o‘ringa	bepul
5.	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga	bepul
6.	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o‘rin/kunga	bepul